

MILLIY HUNARMANDCHILIK – KICHIK BIZNESNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Maroziqov Akmal Abdurashidovich

Qo‘qon davlat pedagogika institute tarix fanlari bo‘yicha PhD, o‘qituvchi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar:

Agrar soha, tadbirkorlik, innovatsiya, ko‘p ukladli iqtisodiyot, agrar munosabatlar, ishlab chiqarish, sanoat, islohotlar.

Annotatsiya

O‘zbekiston mustaqillikka erishganning ilk yillaridanoq uzoq yillar davomida agrar sohaga ixtisoslashib qolgan respublikada, ijtimoiy – iqtisodiy inqiroz sharoitida ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo etish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirilishi juda zarur edi. O‘zbekistonda eng avvalo aholini ish bilan ta‘minlaydigan, ularni iste‘mol tovarlari bilan ta‘minlaydigan soha tadbirkorlikni rivojlantirish dolzarb va ustuvor vazifa edi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Ma‘lumki, O‘zbekiston hududi qadimiy madaniyatga ega bo‘lib, hunarmandchilik taraqqiy etgan hududlardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, hunarmandchilik o‘z taraqqiyoti jarayonida uy hunarmandchiligi, buyurtma va bozorga asoslangan hunarmandchilik shakllarini bosib o‘tdi. Hunarmandchilikning bunday bosqichlarni bosib o‘tishiga ijtimoiy mehnat taqsimotlari katta turtki bergan.

Sovet davriga kelib, mamlakatimiz hududida rejali iqtisodiyotning ta‘sirida hunarmandchilik o‘z rivojida tushkunlik, tanazzul davrini boshida kechirdi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, 1956 yilda sovet hukumati «Hunarmandlar kooperatsiyasini tugatish to‘g‘risida» qaror qabul qildi va hunarmandchilik sohasini sanoatlashtirishga ham urinishdi. Oqibatda 1960-yillarning boshida O‘zbekistonda hunarmandchilik ishlab chiqarishida band bo‘lgan aholi soni shu qadar keskin kamaydiki, bu ko‘rsatkich xalq xo‘jaligida band bo‘lganlar umumiy sonining 0,1 foiziga ham etmadi[1]. 1980-yillarga kelib milliy xunarmandlar yarim yashirin faoliyat ko‘rsata boshladi.

Mustaqillik yillariga kelib, hunarmandchilik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakat iqtisodiy hayotida yuz berayotgan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar davrida hunarmandchilikni saqlab qolish va taraqqiy ettirish – xalqning milliy an‘analarini, urf-odatlarini qayta tiklashga tenglashtirildi. Zero, O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida, “...rivojlangan mamlakatlarning ko‘p asrlik tajribasiga, shuningdek, O‘zbekiston xalqining milliy tarixiy merosi, turmush tarzi, an‘analari va ruxiyati xususiyatlariga...[2] tayanildi.

Mamlakatda, shu jumladan, Farg‘ona viloyatida xalq iste‘moli mollari, badiiy hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirishga qaratilgan ilk normativ hujjatlarning biri sifatida 1992 yil 3 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat «Mahalliy sanoat»

korporatsiyasini tashkil qilish to'g'risida»gi[3] Farmoni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Farmonga asosan respublika xalq badiiy hunarmandchiligi savdo-sanoat birlashmasiga qarashli korxonalar va tashkilotlarning shu birlashmasi Davlat «Mahalliy sanoat» korporatsiyasi tarkibiga kiruvchi Respublika xalq badiiy hunarmandchiligi sanoat-savdo konserniga aylantirildi. Bu, o'z navbatida, bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda, aholining iste'mol mollariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Hunarmandchilikka bo'lgan e'tiborning navbatdagi bosqichi 1997 yilga to'g'ri keldi. O'sha yilning 31 martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»[4] gi Farmoni qabul qilindi. Unga asosan uy sharoitida badiiy hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarayotgan xalq ustalariga joylardagi hokimliklarning amaliy yordami muhim vazifa-lardan biri sifatida ko'rsatilgan. Hunarmandlar besh yilgacha daromad solig'idan ozod qilindilar, respublikadan chetga chiqariladigan xalq hunarmandchiligi buyumlari uchun boj to'lovi olish bekor qilindi. Buning natijasida norasmiy faoliyat olib borayotgan hunarmandlar ro'yhatga olindi, soha rivojlanish bosqichiga o'tdi.

XXI boshiga kelib milliy hunarmandchilikning respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o'sishini ta'minlashda hamda tadbirkorlikni rivojlantirishda salmoqli hissasi e'tiborga olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [5] gi Farmoni hunarmandchilikning barcha turlari, agar Farg'ona viloyatining xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsa, kulolchilik va kashtachilik rivojiga juda katta amaliy yordam berdi. Zero, undan ko'zlagan maqsad milliy sharoitga mos uy mehnati turlarini kengaytirish, ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda oilaviy biznes-tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.

Farg'ona viloyatining Rishton tumanida ham tayyorlangan sopol buyumlari, miniatyuralari jahon xalqlari orasida katta shuhrat qozongan va qozonib kelmoqda. Farg'ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Rishton tumani Buyuk ipak yo'lida tashkil topgan, u uzoq yillar davomida tuman chiroylik sopol buyumlar ishlab chiqaruvchi markaz bo'lib keldi.

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Rishton tumani kulolchilik bilan juda tez sur'atlar bilan rivojlanib, Markaziy Osiyodagi savdo-sotiqning asosiy markazlaridan biriga aylanib kelgan. SHaharda kulolchilik mahallalari joylashgan. Rishtonlik hunarmand – ustalarning milliy uslubda tayyorlangan mahsulotlari o'zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nushali naqshlariga, ko'k moviy ranglarga boyligi bilan ajralib turgan. Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo uslubida esa olov rang (bu-quyoshni anglatadi), qishg'ish va yashil rang ustuvorligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Umuman, Farg'ona vodiysi kulolchilik maktabining asosiy xususiyatlari uning aholi etnik tarkibi, joylashishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Rishtonda yo'qolib ketgan ganch-chinni ishlab chiqarish texnikasi aka-uka Abdu Jalol va Abdujamillar tomonidan tiklangan. Ular kulolchilik buyumlarini Qashg'ar va Eron kabi davlatlardan o'rganib, bu erdagi mavjud maktabni tiklaganlar. Kalli Abdullo ularning shogirdi bo'lib, o'z davrining chinni mutaxassisi bo'lib etishgan. Rishtonlik barcha kulollar uchun Usta – oqsoqol nomini olgan[6]. Hatto, uning san'ati Qo'qon xoni tomonidan yuqori baholangan. Hatto, 1870-yillarda usta Abdulla – Kalli Rishtonlik hunarmandlar bilan birga Said – Muhammad Xudoyorxonning saroyini (O'rda) bezak ishlari bilan shug'ullangan[7].

XIX asr boshlarida Rishtonning kulolchilik mahsulotlari nafaqat Farg'ona vodiysi, balki Markaziy Osiyo bo'yicha ham yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlar qatoridan joy oladi. Bu vaqtlarda shaharda 300 nafardan ortiq kishi ishlaydigan 100 ga yaqin kulolchilik ustaxonalari bo'lgan. Bu davrlarda Qo'qon xonligi va SHarqiy Turkiston hunarmandlari bilan uzviy aloqalar o'rnatilgan. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olgan vaqtda podsho hukumatining qo'llab-quvvatlashi bilan bu

korxonalar o'z faoliyatini davom ettiradi. Rishton kulollarining mahsulotlari Markaziy Osiyoning barcha shaharlariga etib borgan. Ba'zi hunarmandlar Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlardagi bozorlarda o'zlarining shaxsiy savdo do'konlarini ochganlar. SHuningdek, Rishtonga Konibodom, ayrim vaqtlarda G'ijduvon, Qarshi, SHaxrisabz shaharlaridan ustalar o'zaro tajriba almashishi uchun tashrif buyurganlar[8].

O'zbekistonda an'anaviy bo'lgan hunarmand va kosiblar sobiq kommunistik mafkura hukmronligi vaqtidagi barcha to'sqinliklarga qaramay asrlar davomida saqlanib qolgan o'z hunarlarini yo'qotmagan. Hunarmand-kosiblarning bu yillardagi kooperativ artellari yirik sanoat korxonalari bilan salkam teng aholi uchun kerakli xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hunarmandchilik koopratsiyasi o'z artellarini ochib, ortiqcha ish kuchlarini ishga jalb etish, mahalliy xom ashyodan oqilona foydalanish o'rniga, markazning tashabbusi bilan bu korxonalar asossiz tugatildi. 1970 yillardan boshlab Rishton sopolli an'anaviy badiiy va texnologik usullar asosida qayta tiklandi[9]. Boshqa hududlardan farq qiladigan Rishton kulolchilik namunalarning xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish qilinishi, e'tirofga sazovor bo'lishi Rishtonlik kulollar mehnati va iste'dodining isbotidir.

Bu sohaga O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ham alohida e'tibor berildi. Ayniqsa yoshlarni milliy hunarmandchilik va amaliy san'at na'munalari bilan tanishtirish va ularda qiziqish uyg'otish, xalq ustalarining mehnatlarini munosib rag'batlantirish va respublikada azaldan shakllanib rivojlanib kelgan hunarmandchilik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hunarmand va musavvirlarning "Hunarmand" uyushmasi tuzilib, bu uyushma bugungi kunga kelib barcha viloyat va tumanlarda 13 ta boshqarma, 159 ta bo'limga bo'linib keeng faoliyat olib bormoqda. Uyushma tomonidan har yili turli miqyosda ko'rgazma, festival, ko'rik-tanlovlar o'tkaziladi. Ayni paytda mahallalar qoshida yoshlarni bo'sh vaqtarini mazmunli o'tkazish maqsadida respublika usta-hunarmandlarining ustaxonlarida 800 dan ortiq "Ustoz-shogird" maktablari tashkil etildi, 4000 nafarga yaqin yoshlar hunar sirlarini egalladi. Rishton tumanidagi hunarmandlarga ham 33 ga er ajratilib, chinni va kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun hunarmandchilik sanoat markazi ham tashkil etildi[10].

Mustaqillik sharofati bilan respublikada iqtisodiy tiklanish va milliy o'zlikka qaytish davomida milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirish yo'llari ishlab chiqildi. 1995 yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston xalq ustalari va hunarmandlarining birinchi respublika yarmarkasi muhim voqealardan biri bo'ldi.

Usta-hunarmandlarning mahsulotlari horijlik sayyohlarni ham qiziqtirib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, 2009 yilda "R-PLYUS KORON" mas'ulyati cheklangan jamiyat yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullandi, dastlab tashkil etilgan korxonada 4 ta ish o'rnini yaratib, sopol buyumlar ishlab chiqarish bilan ish boshladi. Hozirda ushbu korxonada ikki yuz xildan ortiq xar xil turdagi unikal va plitkali sopol buyumlar, plitkali sopol buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Oltmishdan ortiq ish o'rnini tashkil etildi. Ushbu ishlab chiqarish mahsulotlarni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarga, Evropa davlatlariga xususan, Germaniyaga eksport qilish yo'lga qo'yildi. Ayni paytda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tumanda turizm salohiyatini oshirishga katta xissa qo'shdi. Korxonaga AQSH, Germaniya, SHvetsiya, Pokiston, Xindiston, Isroil, Janubiy Korea, YAponiya kabi ko'plab davlatlardan turistlar kelib katta qiziqish bildirganlar. Tadbirkor tomonidan tuman markazida tashkil etilgan "YOsh hunarmandlar markazi" binosida yigirmadan ortiq yoshlar ish bilan ta'minlandi[11].

Ishlab chiqarilgan kulolchilik mahsulotlarining o'ziga xos shakli va yasaliish uslubi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni turli ko'rgazmalar, festivallarda ishtirok etishiga ham sabab bo'lib keldi. Masalan, 2018 yil Rossiya Federatsiyasining Qrim o'lkasida o'tkazilgan "Olovli gullar" deb atalgan VIII festivalda Rishton kulolchilik maktabi an'alarini va mahsulotlarini namoyish etgan mahalliy hunarmandlar ishtirok etishdi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda, shu jumladan, Farg‘ona viloyatida hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish, himoyalash va qo‘llab-quvvatlash uchun institutsional asos shakllandi va rivojlandi. Buni hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan Respublika xalq hunarmandlari va musavvirlari «Hunarmand» uyushmasi, Respublika «Tadbirkor ayol» uyushmasi, Respublika «Usto» birlashmasi, «Mahalla» jamoat fondi va ularning viloyatlardagi bo‘limlari faoliyatlarida kuzatish mumkin. Ushbu institutlar: xalq hunarmandchilik ustalarining faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnika uskunalari bilan ta‘minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishga, (shu jumladan eksportga) ko‘mak berishda; mamlakat ichkarisi va horijda hunarmand ustalarining buyumlarini reklama qilish uchun fotosuratlar, kataloglar chiqarish, ko‘rgazmalar tashkil etishda; xalq amaliy san‘ati na‘munalari hamda an‘analarini saqlab qolish, yuksak mahorat bilan badiiy buyumlarni tayyorlashni yoshlarga singdirishda hunarmandlarga katta ko‘mak bermoqda.

Адабиётлар

1. Абдуллаева Р.Г. Хунармандчилик Тараққиётининг Тарихий Ва Институционал Асослари // Иқтисод Ва Молия. 2017. -№ 2, - 5 Бет.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон – Бозор Муносабатларига Ўтишининг Ўзига Хос Йўли.- Тошкент. Ўзбекистон. 1993. -67 Бет.
3. <https://Lex.Uz/Docs/641343>
4. <https://Lex.Uz/Docs/168968>
5. <https://Lex.Uz/Docs/965110>
6. Камилов И. Керамика Риштана: Традиции И Мастера. – Тошкент. 1998.- С. 17.
7. Рахимов М.К. Ўзбекистонда Бадий Кулолчилик – Тошкент. 1961. - 56 Бет.
8. Абдулазизова Н.Тупрокдан Ясалган Мўъжиза // Фарғона Ҳақиқати. 2011 Йил 6 Июль.
9. Камилов И. Керамика Риштана: Традиции И Мастера. ... - С. 14.
10. Экономический Вестник Узбекистана. Аналитический Журнал. 2017. -№2, - С.15-16.
11. Фарғона Виоляти Риштон Тумани “R-Plyus Korop” Масъуляти Чекланган Жамияти Раҳбари Р.Тожитдинов Билан Қилинган Сухбат. Сухбат 2019 Йил 28 Апрельда Ёзиб Олинган.
12. Abdurashidovich, M. A. (2021). The Role Of Agricultural Culture In Livestock In Fergana Region. Middle European Scientific Bulletin, 18, 90-94.
13. Abdurashidovich, M. A. (2021). Early Years Of Independence In Uzbekistan Entrepreneurship In Fergana Region: Reforms, Problems, Updates. World Bulletin Of Social Sciences, 4(11), 9-12.
14. Марозиқов, А. А. (2021). Фарғона Виолятида Деҳқончилик Маданиятининг Аҳоли Турмуш Тарзидаги Ўрни. Oriental Art And Culture, 2(4), 520-525.
15. Марозиқов, А. А. (2022). Фарғона Виолятида Деҳқончилик Маданиятининг Аҳоли Турмуш Тарзидаги Ўрни. Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal, 3(1), 45-50.
16. Марозиқов, А. А. (2022). Мустақилликнинг Дастлабки Йиллари Фарғона Виолятида Тадбиркорлик: Ислохотлар, Муаммолар, Янгиланишлар. Ижтимоий Фанларда Инновация Онлайн Илмий Журнали, 2(1), 199-203.
17. Марозиқов, А. А. (2021). Фарғона Виолятида Деҳқончилик Маданиятининг Аҳоли Турмуш Тарзидаги Ўрни. Oriental Art and Culture, 2(4), 520-525.
18. Марозиқов, А. (2020). Фарғона Виолятида Фермер Хўжаликлари Ривожланишининг Ижтимоий–Худудий Жиҳатлари. Взгляд В Прошлое, 3(5).